

Yusuf va uning akalari...



12:40 / 05.06.2019 7118

18

Yusuf gap boshlab, ularga shunday dedi:

- Sizlar qaerdansiz?
- Biz Kan'ondanmiz.
- Otangiz kim?
- Ya'qub ibn Ishaq ibn Ibrohim (ularga Allohning salavoti va salomlari bo'lsin).
- Sizlarning boshqa ukalaringiz ham bormi?
- Ha, bizning yana Binyamin ismli ukamiz bor.
- U nega sizlar bilan birga kelmadi?
- Otamiz uni yo'qotishni va undan uzoqlashishni xohlamaydi.
- Nima uchun uni yo'qotishni xohlamaydi, u juda kichkina bolami?
- Yo'q, uning Yusuf ismli akasi bor edi, bir safar u biz bilan o'rmonga borganida, uni narsalarimiz oldida qoldirib, o'ynagani ketganimizda, uni bo'ri yeb ketgan,

deyishdi.

Yusuf ichida kulib qo'ydi lekin ularga hech narsa demadi. Yusuf ukasi Binyaminni ko'rishga mushtoq bo'ldi. Alloh Ya'qubni ikkinch marta sinashni xohladi. Yusuf ularga yegulik (ovqat) buyurdi va: «**Mening huzurimga ota bir iningizni olib keling**». Agar uni olib kelmasangiz, sizlarga yegulik yo'q", dedi.

Yusuf ularning (don almashtirish uchun) keltirgan narsalarini yuklarining ichiga qaytib solib qo'yishga buyurdi.